

Forsh tumanining geografik tuzulishini etnik jihatdan tahlil qilish

Javoxir Axmad o‘g‘li Fayzullayev
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Taqdim etayotgan maqolamizda bugungi kun avlodlarini har bir hududning geografik tuzulishi bilan tanishtirish va shu bilan bir qatorda ularning hududiy infra tuzulmasi ham aloxida axamiyatga ega jixatlarini ham tanishtirish lozim. O‘zbekiston hududining geografik joylashuvi qadimiy xalqlar va millatlarning etnik tuzulishi joylashuvi qo‘shti hududlar bilan bir qatorda xalqlarni bir biri bilan savdo-sotiqlik jarayonlarining ham ahamiyatli jixatlari bilin tanishtirish orqali ular dunyoqarashini shakilantirish mumkin.

Kalit so‘zlar: entnografika, geografiya, iqtisodiy tuzulma, rivojlanish, davit, hudud, o‘zbeklar mang‘itlar, sulola, Temuriylar, qazilma boyliklar

Ethnic analysis of the geographical structure of Forsh district

Javakhir Akhmad oglu Faizullayev
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek


Abstract: In the article we are presenting, it is necessary to introduce today’s generations to the geographical structure of each region and, at the same time, to introduce the important aspects of their territorial infrastructure. Geographical location of the territory of Uzbekistan, the ethnic structure of ancient peoples and nations, as well as the neighboring regions, it is possible to shape their worldview by introducing the peoples to the important aspects of trade processes with each other.

Keywords: ethnography, geography, economic structure, development, davit, territory, Uzbeks, Mangits, dynasty, Timurids, mineral resources

Har bir hududning geografik tuzulishi bilan bir qatorda ularning hududiy infra tuzulmasi ham aloxida axamiyatga ega xisoblanadi. O‘zbekiston hududining geografik joylashuvi qadimiy xalqlar va millatlarning etnik tuzulishi joylashuvi qo‘shti hududlar bilan bir qatorda xalqlarni bir biri bilan savdo-sotiqlik jarayonlari ham ahamiyatli hisoblanadi. Biz tadqiq qilib o‘rganayotgan Hozirgi Forish viloyati hududi ham turli davrlarda va turli tarixiy jarayonlarda, asosiy davlatlari tarkibiga kirdi. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda 1500-1599 yillarda Forish viloyati Jizzax begligining tarkibida bo‘lgan, o‘zbeklar sulolasidan Shayboniyilar sulolasasi undan so‘ng

Ashtarkoniylar boshchiligidagi Buxoro xonligining tarkibiga kirgan edi. Jizzax beglidagi siyosiy jarayonlar judda keskin va ziddiyatlarga boy bo‘lgan buning natijasida esa tez-tez xonliklar qo‘lma - qo‘l bo‘lishi, buning oqibatida esa Jizzax xonligi amalda mustaqil bo‘la olgan. 1756-1866 yillarga kelib Jizzax Buxoro amirligining asosiy tarkibiga kirdi sekin astalik bilan unga o‘zbeklar va mang‘itlar sulolasi rahbarlik ostiga o‘tdi. 1860-yillarning boshlariga kelib Jizzax qo‘sh devor va chuqur ariq bilan o‘ralgan Jizzax bekdomining ma’muriy markaziga aylandi. Bu vaqt davomida shahar aholisi 20 000 kishini tashkil etdi. Forsh tumanining tuzulishini o‘rganish orqali forsh tumanining iqtisodiy-infratuzulmasi asosiy jixatlariga e’tibor qaratamiz.

Forish tumani - Jizzax viloyatidagi tumanlardan biri. 1935-yil 9-fevralda tashkil topgan. 1962-yilda esa ushbu hudud Nurota va Jizzax tumanlari tarkibiga qo‘shib yuborildi. Bir necha yillardan so‘ng yani 1964-yilda bu hudud nomi qayta tiklangan. Qayta tashkil etilgandan keyin ushbu hudud yani Forish tumani dastlab Samarqand, 1964-yilda esa Sirdaryo, 1974-yilga kelib Jizzax viloyatlari tarkibiga kiritildi. Forsh hududining geografik tuzulishini Shimoliy va shimoli-sharqdan Qozog‘iston, sharqdan Sharof Rashidov, Zafarobod, Arnasoy, Do‘slik, Mirzacho‘l tumanlari, Janubdan G‘allaorol tumani, g‘arbdan Samarqand, Navoiy viloytalarining Qo‘shrabot, tumanlari bilan chegaradoshligini ko‘rishimiz mumming. Jizzax viloyati Forish tumani xaritasi.




Forish tumani hududining asosiy maydoni 9,53 ming kv.km bo‘lib, chegara uzunligi 583 kmni tashkil etdi. Aholisi sonini esa doimiy kuzatish va statistika ma’lumotlariga qarab keltiramiz. 2021 yilning 1 yanvar holatiga Forish tumani aholisi soni viloyat doimiy aholisi (1 410,6 ming kishi)ning 6,6 foizini yoki 93,8 ming kishini


tashkil etadi. Shundan, 17,4 ming kishi shahar joylarida va 76,4 ming kishi qishloq joylarida istiqomat qiladi. Aholi zichligi 1 kv. km. ga 9,81 kishiga to‘g‘ri keladi.

Forsh tumanining nomlanishi tarixiga keladigan bo‘lsak yana bir bor taixiy manbalarga tayanamiz. Tarixchilarning bergan ma’lumotlariga ko‘ra tuman nomiga o‘tgan Forish qishlog‘ining nomi Temuriylar sultanati asoschilaridan Amir Temurning Samarkand atrofida qurdirmoqchi bo‘lgan “Parij” shahri nomidan olingan. Keyinroq mahalliy xalq shevasida bu atama Farij, Farish, Forish deb o‘zgarib borgan degan, manbalar ham mavjud. Forsh Hududi o‘z nomini shu yerda joylashgan Farish qishlog‘idan olgan. Bu nom dastlab Parijga o‘xshab ketgan va Temur (Tamerlan) davrida Frantsiya poytaxtidan olingan degan versiya mavjud. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” da bu variant mahalliy ma’lumot sifatida belgilangan [1], biroq tarixchi G.A.Hidoyatov (1990) uni hech qanday izohsiz batatsil bayon qilgan. G.A.Hidoyatov yozganidek, Temur o‘z imperiyasining bosh shahri Samarqandni dunyoning eng yirik va hashamatli poytaxtiga aylantirmoqchi edi. Hukmdorning rejasiga ko‘ra, boshqa mamlakatlarning poytaxtlari uning fonida kamtarona qishloqlar kabi ko‘rinishi kerak edi. U Samarqand atrofida bir qancha kichik aholi punktlari barpo etishni buyurib, ularga Bag‘dod, Damashq, Qohira, Sherzo, Sultoniya va Parij nomlari berilgan [5]. Oxirgi toponim mahalliy aholi nutqida asta-sekin buzib ko‘rinishga ega bo‘lsa ham (Paris/Farish/Farish/Forish).

Hududlarning infratuzulmasini baxolashda va o‘rganishda axolining turmush tarzini yaxshilash uchun sanoat-korxonalari zonalarini tuzulishini ham o‘rganib chiqishimiz lozim. Farish viloyati hududida asosan qo‘rg‘oshin, rux, basalt, ohaktosh, va marmar, qora ohaktosh konlari mavjud bu esa sanoat zonalarini rivojlantirishga asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu konlarni o‘zlashtirish ochiq usulda qazib olish yordamida amalga oshiriladi. Bu yerda Uchquloch konining korxonalari faoliyat yuritadi (Karbonat, Devon, Forteks va boshqalar).

Sanoat mahsuloti





Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) lari

O'sib kelayotgan yosh avlodga o'zi yashab turgan joyning tarixi iqtisodiy ijtimoiy tuzulishini o'gatishimiz va bu orqali manaviy marifiy dunyoqarashini shakillantirishimiz va barkamol avlodni tarbiyalashimiz mumkin. Xulosa o'rnida shuni atkidlab o'tmoqchimizki bugungi kunda Jizzax viloyatining Forish tumanining ijtimoiy iqtisodiy va madaniy rivojlanishi uchun amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda misol uchun tuman markazining "Bog'don" shaharchasida ta'mirdan chiqarilgan madaniyat markazi binosini foydalanishga topshirishi va unga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tkizilishi. Tadbirda O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov tuman faollari, jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Ana shu e'tibor tufayli 80 yillarning boshlarida qurilib, o'tgan 40 yilga yaqin davrda ta'mirtalab va nochor ahvolga kelib qolgan tuman madaniyat markazi rekonstruksiyadan so'ng eng ko'rkam inshootlardan biriga aylandi. Tadbir ishtirokchilari yangilangan madaniyat markazi faoliyati bilan tanishdi. Davlat byudjetidan sarflagan 2 milliard 700 million so'm mablag' hisobiga faqat bino o'ziga emas, barcha jihoz va mebellar ham to'liq yangilandi

Foydalilanigan adabiyotlar

1. FORSH TUMANINING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARI 2022YIL YANVAR-DEKABR forsh tумани statistika bo'limi.
2. Forsh tumanining 2017-2019 yillarda ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish xolati to'g'risida AXBOROTNOMASI. Jizzax-2020
3. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. Science and Education, 4(5), 988-992.
4. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Science and Education, 3(12), 590-592.
5. Nishanova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). O'SMIRLARGA HUQUQIY BILIM BERISHDA KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. Экономика и социум, (8 (87)), 42-45.

6. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 4(2), 969-972.
7. Jo'Rakabirova, M. X. Q., & Kamalova, A. O. Q. (2024). Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta'lif tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati. Science and Education, 5(3), 490-494.
8. Oribboyeva, D. D., & Botirova, Z. (2024). Kichik yoshdagi mакtab o'quvchilarida tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish xususiyatlarining rivojlanishi. Science and Education, 5(3), 541-544.
9. Karimov, J. J. O. G. L., & Kamalova, A. (2024). Yoshlar o'rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi. Science and Education, 5(2), 513-519.
10. Ibragimova, D. R. (2024). O'QISHGA BO'LGAN QIZIQISHNI OSHIRISH, O'ZLASHTIRMASLIKNI OLDINI OLUVCHI OMIL SIFATIDA. Results of National Scientific Research International Journal, 3(1), 194-200.
11. Ubaydullayeva, M. B. Q. (2023). Iroda va uning shaxs hayotidagi ahamiyati. Science and Education, 4(2), 958-961.
12. Абдуллаев, Т. У. Центральная предельная теорема для последовательностей зависимых бернуlliевых случайных величин.